

O‘ZBEK VA QIRG‘IZ BOLALAR FOLKLORI XUSUSIDA

S.A. Adilov

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada o‘zbek va qirg‘iz bolalar xalq og‘zaki ijodining paydo bo‘lishi va o‘rganilish tarixi xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: folklor, bolalar folklori, teatr, turkiy xalq, qirg‘iz adabiyoti, ijod, qadriyat, madaniy meros, an‘ana, topishmoq, ertak.

АННОТАЦИЯ

В статье рассказывается об истории возникновения и изучения узбекского и кыргызского детского устного народного творчества.

Ключевые слова: фольклор, детский фольклор, театр, тюркский народ, кыргызская литература, творчество, ценность, культурное наследие, традиции, загадка, сказка

ABSTRACT

The article tells about the history of the emergence and study of Uzbek and Kyrgyz children’s oral folk art.

Keywords: folklore, children’s folklore, theater, Turkic people, Kyrgyz literature, creativity, value, cultural heritage, tradition, riddle, fairy tale.

O‘zbek bolalar folklori uzoq yillardan beri mavjud. Bunga kattalar ham, bolalar ham bab-baravar hissa qo‘shganlar. Kattalar butun bir tizimdan iborat bolalarni erkalash poeziyasini yaratganlar, bolalarga mo‘ljallab ajoyib-g‘aroyib ertaklar to‘qiganlar; ularning zehnini charxlovchi topishmoqlar, nutqini o‘stiruvchi tez aytishlar ijod qilganlar. O‘zbek bolalar folklorida bolalikning qalb tebranishlari, qiziqish va ehtirolari, voqelikka munosabatlari o‘ziga xos ifodasini topgan. Bolalar shular bilangina cheklanmaganlar; ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot taqozosi bilan kattalar repertuariga daxldor ayrim folklor namunalarini o‘zlashtirib “o‘zlariniki” qilib borganlar. Bugungi kunda topishmoqlar, tez aytishlar va qo‘g‘irchoq teatrining tom ma‘noda bolalarniki bo‘lib qolgani hech kimda shubha uyg‘otmaydi.

O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab, turkiy xalqlari folkloriga e‘tibor bera boshladilar. Jumladan, A.P.Ostroumov va A.Vasilevlar o‘zbek topishmoqlarini to‘plab nashr ettirdilar, A.N.Samoylovich tatarlarning tez aytishlari, V.Gordlevskiy usmonli

turklar va M.D.Gavrilovlar qirg'iz tez aytishlariga oid kuzatishlarini e'lon qildilar. N.P.Pantusov qirg'izlarning "To'qqiz qumaloq" o'yinini tavsifladi. Ammo bunday kuzatishlar qat'iy tizimli yo'nalishga ega bo'lmaganligidan turkiy xalqlar bolalar folklorini to'plashdagi muayyan bir bosqich sifatida favqulodda ilmiy qimmatga molik. Shuningdek, M.Nalivkinning Farg'ona vodiysi o'zbek bolalari turmushiga oid kuzatishlari ham e'tiborga loyiq. U bolalarning o'tmishdagi ayrim o'yinlari, shuningdek, "Oq terakmi, ko'k terak?", "Yo, ramazon" singari qo'shiqlariga ham to'xtalgan. Bu ma'lumotlar dalillarni tarixan muqoyasa etishda qimmatlidir. O'zbek bolalar folklori namunalarini yozib olish ishlari, asosan, sobiq sho'ro davrida kengroq yo'lga qo'yildi. Jumladan, M.S.Andreev O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ovutmachog'ining 13 ta namunalarini to'plab nashr ettirdi. To'ra Zihniy va Ismoil Orifiylar o'zbek topishmoqlari to'plashda davom etdilar. G'ozzi Olim Yunusov "Alla to'g'risida bir necha so'z" maqolasini e'lon qildi. Samarqand davlat universitetining Sharqshunoslik fakulteti studentlari A.K.Borovkov o'zbek bolalari o'yinlarini kuzatsa, E.K.Borovkova laylak bilan bog'liq hukmlamalar asosida xalq irimlari tarixiga nazar soldi. O'zbek bolalari o'yinlarini, mavsum va marosimlarga oid o'yin qo'shiqlarini va o'yinchoqlarini to'plash va etnografik jihatdan o'rganishda E.M.Peshcherova alohida g'ayrat ko'rsatdi. Shu tariqa 20-yillardayoq o'zbek bolalar folklorshunosligining tamal toshi qo'yila boshlagan edi. 30-yillarda o'zbek bolalar folklori namunalarini yozib olish va nashr etish, o'quv dasturlariga, darslik va majmualarga kiritish ishlari bir qadar jonlandi. Elbek tomonidan tartib berilib, 1937 yilda chop etilgan "Bolalar qo'shig'i" to'plami ana shu yo'ldagi dastlabki jiddiy urinish bo'ldi. O'zbek folklorshunosligining asoschisi professor Hodi Zarif tashabbusi bilan tuzilgan majmua (xrestomatiya) larda bolalar folklori namunalariga ham joy berildi. Keyinchalik bu o'ziga xos an'anaga aylana bordi. Natijada 70-yillarga kelib, bolalar folklori namunalarini bog'cha bolalariga mo'ljallangan majmualarga kiritish, hatto ayrim janrga oid asarlar namunasini mittivoylar didiga muvofiqlashtirib, rasmlil, bezakli qilib nashr etish anchagina yaxshi yo'lga qo'yildi.

H.Zarif rahbarligida o'zbek folklorshunoslari bolalar folklorini to'plashga va tadqiq etishga kirisha boshaldilar. Bunday izlanishlar, ayniqsa, 60-70 yillarda avj oldi. Z.Husainova o'zbek topishmoqlarini to'plab. Matn jihatdan nashrga tayyorladi va ularni tadqiq etishda e'tiborga loyiq natijalarga erishdi. Ayniqsa, uning "O'zbek topishmoqlari" monografik tadqiqoti va 2664 ta topishmoqni o'z ichiga olgan "Topishmoqlar" to'plami o'zbek bolalar folklorshunosligi ravnaqiga jiddiy hissa bo'lib qo'shildi. G'ani Jahongirov esa o'zbek bolalar folklori xususiyatlarini o'rganish va umumlashtirish sohasida uzoq yillardan beri g'ayrat ko'rsatib kelmoqda. Shunday izlanishlar natijasida "Bolalar ertaklari" singari tadqiqotlari yuzaga keldi. U bu tadqiqotlarida ilk bor o'zbek bolalar folklorini yozib olish va o'rganish tarixiga nazar

soldi. Bolalar folklorini tasnif etishga urinib ko‘rdi va nihoyat, beshik qo‘shiqlari, tez aytishlar, topishmoqlar, bolalar qo‘shiqlari va va o‘yin folkloriga oid nazariy kuzatishlarini bayon qildi.

Xalq og‘zaki ijodiyotining ajralmas qismi bo‘lgan qirg‘iz bolalar folklori uzoq asrlardan beri shakllanib, turli ijtimoiy formatsiyalarni bosib o‘tib, qirg‘iz millatining madaniyatini, etnografiyasini va tarixini o‘ziga singdirgan.

Qirg‘iz bolalar folklori repertuari juda xilma-xil va boy. Bolalar folklorini an‘anaviy folklordan ajratib bo‘lmaydi. Har bir janr bolalarning tabiati va ularning ijodiy faoliyatiga qarab o‘zgarishlarga uchraydi. Bolalarning har qanday asarlari (har qanday janr) bola ishtirokida yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri bolalar tomonidan ijro etiladi. Masalan, bolalar auditoriyasida topishmoq aytiladi, siz javobni topishingiz kerak, yoki bolalar ikki guruhga bo‘linadi, topishmoqni aytib musobaqa uyushtirishadi. Demak, bolalar folklorini yaratishda bevosita bolalar ishtirok etadilar.

Qirg‘iz bolalar milliy folklori boshqalar kabi o‘ziga xos va qiziqarlidir. Ularda qiziqarli aytimlar, maqollar va topishmoqlar bor. Qirg‘iz xalqining qo‘shiqlari, dostonlari va maqollari qiziqarli va mazmunli bo‘lganligi bois, ularning folklori jahon adabiyotida o‘z o‘rnini topdi.

Qirg‘iz bolalar folklorida noyob insoniy tuyg‘ular keng tarannum etilgan. Shuning uchun bolalar folklorining namunalari bolalar bog‘chasidan boshlab maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Bolalar og‘zaki poetik ijodiyoti janrlarining turli tumanligi, obrazlilik bilan xalq og‘zaki ijodining an‘anaviy, o‘zgarmas shakli sifatida yashab kelmoqda.

Xulosa qilib shuni ham aytish kerakki, o‘zbek va qirg‘iz bolalar folklori mohiyatan madaniy merosni asrab-avaylash, o‘ziga xoslikni shakllantirish, qadriyat va an‘analarni avlodlarga yetkazishning ajralmas qismidir. Ularning umumiy jihatlari bo‘lsa-da, har bir madaniyatning folklori uning tarixi, geografiyasi va madaniy tajribalari asosida o‘ziga xos tarzda shakllanadi va Markaziy Osiyoning boy madaniy xilma-xilligiga hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T., «Musiqqa», 2010. – 368 b.
2. Сафаров О. “Ўзбек болалар фольклори” –Т.: 2008. –298 б.
3. Орозова Г. Фольклордук жанрлардын өзгөчөлүгү: 2-китеп. Илимий эмгектер. – Б., 2021. – 460 б.